

Sayyor qabul: bugungi kun muammolarining ijobiy yechimi.



Sayyor qabul: bugungi kun muammolarining ijobiy yechimi.

Bugun, 15 apreľ kuni "Bobur" istirohat bog'ida Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev boshchiligida sektor rahbarlari, xalq qabulxonasi va bosh vazir qabulxonasi bilan birgalikda yoshlar, tadbirkorlar va aholi uchun sayyor qabul o'tkazdi. Unda barcha korxonalar va tashkilot rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Bo'lib o'tgan sayyor qabulda shahar hokimi I.Xudoyberdiev murojaat qilgan aholi bilan ochiq, to'g'ridan-to'g'ri, yuzma-yuz muloqot uyushtirdi.

Qabulda fuqarolardan jami 249 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shundan 70 ta fuqaroga subsidiya tartibida uy-joy olish hamda kredit olish bo'yicha 10 nafar murojaatchiga onlayn tartibda kredit ajratilishi batafsil tushuntirildi. 22 nafar murojaatchining masalasi o'z o'rnida ijobiy yechim topdi. Jumladan, "Guliston" MFYda istiqomat qiluvchi fuqaro S.Abdukarimovning farzandi betobligi sababli, "Jayxun" MFYda istiqomat qiluvchi boquvchisini yo'qotgan fuqaro G.Nazarovaga moddiy

yordam ko'rsatildi. Shuningdek, "Temiryo'lchi" MFYda yashovchi yakka yolg'iz qariya fuqaro E.Turdievga sog'lig'ini tiklash uchun moddiy yordam ajratildi.

Aholi bilan ochiq muloqot mobaynida fuqarolarning yo'llarni ta'mirlash, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, elektr-energiya ta'minotini yaxshilash, ishga joylashish, sog'liqni saqlash kabi murojaatlar belgilangan muddatda bajarilishi uchun tegishli

tashkilotlarga va mutasaddirlarga topshiriqlar berildi.

